

O'LKA TABIATINI O'RGANISH JARAYONIDA TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK YO'NALTIRILGANLIK ASOSIDA MA'NAVIY FAOLIYATGA METODIK TAYYORLASH

N. Shodiyev

D. Nabiyeva

(SamDU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'larning kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik prinsipi asosida talabalarni o'lka tabiatini bilan tanishtirish orqali ma'naviy faoliyatga metdik tayyorlash masalalari qaralgan.

Tayanch tushuncha, iboralar: Kasbiy-pedagogik yo'naltirilgan, o'lka, tabiat, talaba, ma'naviy faoliyat, metodik tayyorlash.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы, связанные с духовной подготовкой студентов на основе профессионально – педагогической направленности в процессе ознакомления их сродной природой.

Ключевые слова и выражения: Профессионально-педагогическая направленность, студент, духовная деятельность, методическая подготовка.

Annotation: In this article, based on the principle of professional-pedagogical orientation of education, the issues of methodical preparation for spiritual activities by introducing students to the country are considered.

Basic concept, phrases: Professional-pedagogical orientation, country, nature, studentnt, spiritual activity, methodical training.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisiga murojaatnomasida "Jamiyatimizda aholi, ayniqsa yigit-qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish bиринчи darajali ahamiyatga egadir.

Shu bois, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oyasida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhidha tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoiylik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o'ta sharafli vazifadir" [1].

"Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi" fani o'qiv dasturi va darsligi [4,6] butun mundarijasini tahlili, uning aksariyat boblari, mavzulari bo'lajak boshlang' ich sinf o'qituvchilarini kelgusi pedagogik faoliyatlarida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashga kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik asosida tayyorlashga keng potensial imkoniyatlarni namoyon qildi.

"Tabiatshunoslik fanining ahamiyati va uning rivojlanishi" mavzusida talabalar diqqati astronomiya, tabiat, ekologiya, qishloq xo'jaligi haqidagi bilimlarning dastlabki ildizlarini qayd qilishgan "Avesto" yozma yodgorligi bizning Vatanimiz xududida yaratilganligini mustaqillik tufayli fan dasturi va darsliklarida yoritilganligini ta'kidlash joiz.

“Yer va kosmos” bobini o’rganishda talabalarni o’zbek millatining g‘ ururiga aylangan Mirzo Ulug‘ bekning rasadxonasi (Ulug‘ bekning “Samarqand akademiyasi” Faransiz yozuvchisi va faylasufi Volter iborasi) va unda 1018 ta yulduzni kuzatish asosida yaratilgan jahonga mashhur “Ziji jadidi Ko’ragoniy” asari va uning muzeyi bilan tanishtirish joiz [5].

“Yer osti va usti boyliklari” (Litosfera) mavzu va savollarni o’rganishda talabalar Samarqand geologiya qidiruv-ishlab chiqarish birlashmasi muzeyida viloyatimizning Urgut, Kattaqo’rg‘on tumanlarida volfram konlari, Qo’shrabot tumanida oltin koni, Zarafshon-Ziyovuddin tog‘ etaklarida uran konlari, Nurabot tumanidan radonli yer osti mineral suvlariga (Gidrosfera), boy o’lka.

Samarqand viloyatining mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashga qo’shgan hissasi ulkan ekanligi bilan tanishishni ularda milliy g‘ ururni jo’sh urdiradi.

Tiriklik manbai bo’limi o’lkamiz suv havzalari Gidrosfera-Zarafshon, Oqdaryo, Qoradaryo, Sangzor, Darg‘om, Mirzo Ulug‘ bek Kattaqo’g‘on suv omborlari Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida guvohlik bergen Shovdar ariq-kanali, mingbuloq va qorabuloqlarning Samarqand viloyati xalq xo’jaligiga, ayniqsa qishloqlarning suvga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish barobarida oziq-ovqat xafsizligini xayotimizni xalqimizni farovon hayot kechirishini ta’minlashda alohida ahamiyatga ega.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov alohida ta’kidlaganidek, “Tabiatga yaqinlik, jonajon o’lkaning benihoya go’zallidan bahramand bo’lish ma’naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi” [2,7lb].

Darhaqiqat, odamzot ruhiyati o’zini o’rab turgan tabiatdan quvvat oladi. Inson ma’naviyati buyuk tabiatdir. O’simliklar ham toshlar ham daryolar ham tog‘ lar ham inson ma’naviyatini shakllantiradi. Unda go’zallik tuyg‘ usini paydo etishda o’z o’rniga ega. Ular inqirozga yuz tutar ekan, ularga bog‘ liq inson ruhiyatidagi xususiyatlar yemirilib boraveradi.

Talabalarni tug‘ilib o’sgan joyining o’simlik boyliklari (“O’simliklar dunyosi”) bilan tanishtirish.

Oliy ta’lim muassasasi issiqxonasi, nihol xonasi, shahar gulchilik xo’jaligi, istirohat bog‘ lariga uyuştirilgan ekskursiya mashg‘ ulotlarida fermer xo’jaliklari, intensiv bog‘ lari hamda o’simliklari, suv havzalari o’simliklari bilan tanishtirish joiz. Kuzatilgan o’simliklar ro’yxatini tuzatish, ularni madaniy, mevali, manzarali, yovvoyi holda o’sadigan o’simliklar guruhi (to’plami) lariga bo’lib yozib borish va tanishgan o’simliklar nomlarini lotincha talaffuz qilinishini yod olib borish talabalarning tasavvurini kengaytiradi.

Ma’lumki, Samarqand viloyati tumanlari, cho’l, adir, tog‘, yaylov va suv havzalarida o’sadigan o’simliklarning aksariyat qismi oziq-ovqat, to’qimachilik, kiyim-kechak, farmatsevtika, qurilish sanoatida, qishloq xo’jalik, ayniqsa chorvachilikda keng qo’llanib kelinmoqda. Jumladan, paxta, kanop, to’qimachilik, mevalar, ularning urug’lari, donlaridan tayyorlanadigan mahsulotlar haqida ma’lumotlar hamda o’simliklarning qishloq xo’jaligidagi ahamiyatini yoritib borish talabalarning tabiatshunoslik asoslariga kuzatishni oshirishda hamda uni ongli o’rganishga undaydi.

Aytish joizki, o‘zbek olimlari mustaqillik yillarda suv o‘tlaridan oziq-ovqat, chorvachilik uchun yem-hashak, dehqonchilik uchun organik o‘g‘it ishlab chiqarish, tabobat uchun yod, brom olishni, to‘qimachilik sanoatida gazmolga ishlov berish uchun algin kislotasi tayyorlanmoqda.

Azal-azaldan shifobaxsh o‘simpliklar yordamida bemorlarni davolash xalqimizni qadriyatiga aylangan desak mubolag‘ a bo‘lmaydi.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda xalq tabobbatni instituti markazlari va b.q. faoliyat ko‘rsatib tibbiyot instituti markazlari va poliklinikalar bilan mutanosib rivojlanmoqda. Chunki, dorivor o‘simpliklardan tayyorlangan dorilar ta’sir etish quvvati sifatli, inson vujidiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Shu bois mamlakatimiz farmatsevtika sanoati shifobaxsh o‘simpliklar o‘stirilayotgan maydonlarni kengaytirishga ehtiyoji katta.

Mazkur moyillik jahon tibbiyot tajribasida ham kuzatilmoqda. Dono xalqimiz azal-azaldan yalpix, jag‘-jag‘, ermon, qoqio‘t kabi o‘simpliklardan somsa, manti, chuchvara kabi taomlar tayyorlab iste’mol qilganliklari keyingi paytlarda keng quloch yoyayotganligini har birimiz guvohi bo‘lmoqdamiz. Shu bois xalqimiz ushbu o‘simpliklarni issiqxonada sharoitida parvarish qilayotgani bejiz emas.

Inson organizmini turli vitaminlar bilan boyitadigan sumalak pishirishga tayyorgarlik ko‘rish, uni tayyorlash Bahor “Navro‘z” bayramini o‘tkazishning zarur sharti bo‘lib qoldi.

“Meva urug” mavzusini o‘rganishda uning inson hayotida muhim hisoblanishini, shuningdek, urug‘dan chorva mollari uchun oziq sifatida foydalaniladi. Urug‘dan ta’kidlash joiz sanoatda spirt va pivo, yog‘ olinadi, novvoychilikda foydalaniladi.

- Olma zaif me’dani quvvatlantiradi. Xushbo‘y, shirin va nordon olmalar yurakni quvvatli qiladi (Abu ali ibn Sino) [3].

- O‘rik mevasi tarkibida kaliy tuzlari va temir birikmalari ko‘p bo‘lganligi sababli xalq tabobatida yurak-qon tomir tizimi kasalliklari hamda kamqonlikni davolashda ishlatiladi. Qandli diabeti bor hamda ortiqcha semirib ketgan odamlarga o‘rik iste’mol qilish tavsiya etiladi.

- Qaroli, shaftoli mevalarini ishtaha ochish va ichni yumshatish uchun ishlatish joiz. Barg shirasi bilan yaralardagi qurtlarni o‘ldirgan. Shaftoli ovqat hazm bo‘lishini normallashtiradi, tarkibida kaliy tuzlari ko‘p bo‘lgani uchun yurak faoliyatini kuchaytiradi (Abu Ali Ibn Sino o‘giti) [3].

- Anor urug‘i asal bilan birga tish og‘rig‘i va qulqoq og‘ rig‘iga foyda qiladi. Nordon anor ko‘krak va tomoqni dag‘allashtiradi, shirini esa ularni yumshatadi va quvvatlantiradi.

Shunday qilib, Abu Ali Ibn Sino o‘gitlari, xalqimiz tabobati durdonalari asosida o‘simpliklar, mevalar va ularning inson hayotidagi ahamiyati haqida talabalarga ma’lumotlar berib borish o‘quv-tarbiya jarayonini qiziqarli amalga oshirishda katta ma’naviy ozuqa berish barobarida ularda o‘lka tabiatiga farzandlik ma’suliyati bilan qaraydi, ularni tiklash, parvarish qilish, noyob shifobaxsh o‘simpliklarni o‘stirishga, ko‘paytirishga da’vat etadi.

ADABIYOTLAR RO‘XATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi//”Zarafshon” gazetasi, 2020-yil 30-dekabr
2. Karimov I.A. O‘zbekiston o‘z istiqlolli va taraqqiyot yo’li.-T.:O‘zbekiston, 1992.-78 b.
3. Abu Ali Ibn Sino Tib qonunlari.1-jild. T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.-304 b.
4. Sharipova D., Xodiyeva D.P., Shirinov M.K. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi. Darslik.-T.: Barkamol Fayz mediya, 2018.-456 b.
5. Abdurahmonov A. Ulug‘ bek akademiyasi.-T.,1999.-28 b.
6. Shodiyev N., Rahimqulova M. Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda kasbiy-pedagogik yo‘naltirilganlik. Uslubiy qo’llanma.-Samarqand:SamDU, 2019.-68 b.
7. Shodiyev N. Oliy matematika ta’limida kasbiy-pedagogik yo‘naltirilganlik – talabalar ma’naviyatini shakllantirish sifatida// Uzluksiz ta’lim muassasalari Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari.-Samarqand: SamDU, 2011.-B. 104-107.
8. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi. Fan dasturi. Tuzuvchilar: N.Vohidova, D.Hodiyeva. – ToshDU, 2017.-12 b.
9. Shodiyev N., Nabiyeva D. Tabiatshunslik va uni o‘qitish metodikasi ta’limida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni ma’naviy faoliyatga metodik tayyorlash. Uslubiy qo’llanma. II qism-Samarqand: SamChTI., 2022-50 b.
10. Ergasheva G. O‘lkani tanitish asosida o‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirish// Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish sharoitida yosh avlodni ma’naviy shakllantirish shakli va usullari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.-T.